Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321162

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

экономического роста, и их дальнейшее развитие является ключевым фактором успеха в процессе модернизации экономики страны.

Использованная литература:

1. Абдуллаев Х. (2021). Научные исследования как фактор экономического роста в Узбекистане. Ташкент: Университет экономики Узбекистана.
2. Гафуров Ш. И., & Кенжебекова Г. Т. (2022). Роль науки и образования в развитии инновационных отраслей экономики Узбекистана. Ташкент: Узбекистанский национальный университет.
3. Икрамов М. С. (2023). Педагогика и ее роль в подготовке кадров для инновационной экономики Узбекистана. Журнал педагогических исследований, 9(3), 33–42.
4. Мамирова Ф. Ф. (2022). Влияние инновационных технологий на устойчивое развитие экономики Узбекистана. Вестник Узбекистанского университета, 14(2), 22–31.
5. Рахманов С. Ш. (2023). Система инноваций в Узбекистане: Проблемы и перспективы развития научно-образовательной сферы. Ташкент: Издательство Узбекистанского национального университета.
6. Умаров М. Ш. (2022). Инновационные стратегии в экономике Узбекистана: Научный и образовательный аспекты. Ташкент: Центр стратегических исследований при Президенте Республики Узбекистан.

ROTATION TA’LIM MODELI VA IMKONIYATLARI

A.A. Abdiraximov
IIV Malaka oshirish instituti, Axborot texnologiyalari sikli o‘qituvchisi, katta leytenant
amr.herezen28@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimida eng samarali innovatsion usullar va texnologiyalarni tanlash, oliy ta’lim tizimida elektron ta’limning ahamiyati, rotation ta’lim modellari xususida adabiyotlarda berilgan bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ta’riflari, fikr-mulohazalari, qarashlari va usullari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy ta’lim, zamonaviy ta’lim, uchinchi renessans, rotation model, ta’lim sifati.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida gapirmaslikning imkoni yo‘q. Yurtimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. [1]

Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam to‘g‘ri bo‘ladi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun hamma choralar ko‘rilmoqda.

Published: 23.12.2024
Cite this article: A.A. Abdiraximov (2024). Rotation ta’lim modeli va imkoniyatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321162
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.


O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunida masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF5847-sonli farmonida ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar” dan foydalanish, milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish. [3]

Tinglovchilar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim rivojlantirish, onlayn, “rotation” modeli texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish kabi vazifalar asosiy vazifalar qatoriga kirib bormoqda. [4]

Ta’lim jarayonida elektron ta’limni qo‘llash darajasiga qarab, onlayn ta’lim va aralash ta’lim ajratiladi. Onlayn ta’lim (onlayn ta’lim) — internet texnologiyalari asosida o‘quv muhitidan foydalangan holda o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish jarayonini tashkil etish usuli.

Rotation ta’lim bu — onlayn ta’limning yuzma-yuz ta’lim bilan uyg‘unligi, an’anaviy shakllarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyasidir.



1-rasm. Rotation ta’lim modeli

Rotation ta’lim – bu kurs yoki fan (masalan, informatika) doirasida tinglovchilar belgilangan jadval bo‘yicha yoki o‘qituvchining xohishiga ko‘ra auditoriyada o‘qitish usullari orasida almashinadigan rotation ta’lim modelining amalga oshirilishi. Tinglovchi - rotation modeli Individual modelidan farq qiladi, chunki tinglovchilar nafaqat o‘zlarining maxsus jadvallari bo‘yicha emas, balki barcha tinglovchilar bo‘ylab aylanadilar.

Oliy ta’limda rotation ta’lim muammosini o‘rganish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi.

1. Rotation ta’lim inglovchilarda Axborot texnologiyalar bilan bog‘liq kompetensiyalarni shakllantirish.

2. Institutda rotation ta’lim modeli ma’lum elementlarni o‘z ichiga olgan tizim sifatida shakllantiriladi: Institutning elektron ta’limni rivojlantirish strategiyasi, ta’lim jarayonini Axborot texnologiyalar orqali tashkil etish va maxsus ta’limni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, elektron ta’lim usullari va mazmuni yordamida o‘qituvchilar va tinglovchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va hamkorlikni amalga oshirish.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini tekshirish uchun xalqaro tajribadan muhim o‘rin tutadi. Chet el universitetlari bilan hamkorlik, qo‘shma dasturlarni amalga oshirish, amaliy yordamni jalb qilish orqali jarayonini yangi bosqichga olib chiqish yordam beradi. Shu bilan birga, milliy ta’lim darajasi yuqori darajada tan olish va diplomlarning akkreditatsiyasini ta’minlash ta’lim eksportini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev, Shavkat Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinch nashri. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ 637-sonli qonuni. — URL: https://lex.uz/docs/-5013007

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli farmoni (“On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan), available at: https://lex.uz/ru/docs/-4545884

4. Крылова Е.А. Технология смешанного обучения в системе висшего образования // Вестник ТГПУ. — 2020. — № 1. — С.86–93.

5. https://smublendedlearning.weebly.com/blended-learning-models.html

ПОВЫШЕНИЕ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ПУТЕМ УСКОРЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Хусанов Асадбек Хасанович
Узганбаева Дилноза Тохтасиновна
Ферганский политехнический институт
dilnoza.uzganbayeva@ferpi.uz

Аннотация: Данный тезис исследует роль предпринимательства в повышении благосостояния населения, подчеркивая его значимость как инструмента сокращения бедности. В работе рассматриваются ключевые факторы, способствующие ускоренному развитию предпринимательства, включая обеспечение защиты прав и интересов предпринимателей, создание условий для устойчивой занятости и повышения доходов. Особое внимание уделяется роли государства и частного сектора в создании благоприятной бизнес-среды, а также механизмам, направленным на поддержание социальной мобильности и улучшение качества жизни. В заключение анализируются основные пути достижения устойчивого экономического роста, который способствует сокращению бедности и повышению уровня жизни населения.